

IQBOL MIRZO ASARLARIDA YUKLAMALAR ORQALI
KONNOTATIV MA'NONING HOSIL QILINISHI

*Amir Hamza Jo'rayev Fuzliddin o'g'li.
Shahrixon tumani 26-umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyot o'qituvchi.
Go`zaloy Jo`rayeva Odiljon qizi
Shahrixon tumani 64-IDUM
ona tili va adabiyot o'qituvchi.*

Annotatsiya: ushbu maqolada yuklamalarning she'riy nutqda qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar tadqiq etilgan. Shu bilan birga, yuklamalarning poetik nutqda konnotativ ma'noning hosil qilishdagi o'rni qay tarzda ekanligi yoritilgan.

Kalit so`z: yuklama, ekspressiv bo'yoq, inversiya, denotativ ma'no, konnatativ ma'no, leksema, takror.

Аннотация: В данной статье исследуются особенности использования предлогов в поэтической речи. При этом освещается роль нагрузок в формировании коннотативного значения в поэтической речи.

Ключевое слово: нагрузка, выразительная окраска, инверсия, денотативное значение, коннатативное значение, лексема, повторение.

Annotation: this article examines the peculiarities of the application of loadouts in poetic speech. At the same time, it is illuminated in what way the place of burdens in the formation of connotative meaning in poetic speech is.

Keyword: loading, expressive coloring, inversion, denotative meaning, connotative meaning, lexeme, repeat.

Yordamchi so'zlar – ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar tilimizni, uning cheksiz imkoniyatlarini yana ham boyroq, ifodalarimizni yana ham aniqroq va go'zalroq qilishning asosiy vositalaridandir.

Ma'lumki, tilshunoslikda yordamchi so'zlar alohida kategoriyanı tashqil qiladi va maxsus o'rganiladi. Yordamchi so'zlarning umumiyligi funksional belgisi sifatida ularning "bog'lash"lik xususiyatini olishimiz mumkin. Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchilar uchun o'zgarmas va barqaror sanaladi. Yuklamalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o'xshatish kabi qo'shimcha ma'nolarni yuklash uchun xizmat qiladi va funksional "bog'lash" belgisiga nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni "bog'lash" belgisi bo'lishi ham, bo'lmasisligi ham mumkin. Masalan, **na-na** yordamchisi teng bog'lovchilarning bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelingan. "Inkor yuklamasi na-na inkor bog'lovchisidan kesimining bo'lishli yoki

bo‘lishsiz shaklda ekanligi bilan farqlanadi: kesimi tasdiq shaklda bo‘lsa bog‘lovchi, kesimi inkor shaklda bo‘lsa yuklama.”¹

G‘.Abdurahmonov esa ushbu vositani inkor bog‘lovchisi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ega ekanligini ham aytib o‘tadi. Bu holat o‘zbek tilshunosligida ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ladi. Biroq keyingi yillardagi darsliklarda bu yordamchi inkor yuklamasi deb ko‘rsatila boshlandi. Bu bahs-munozarali fikrlarga R.Rasulov o‘z tadqiqoti bilan ma’lum ma’noda chek qo‘ydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tilshunos olim bu yordamchi vositani uyushgan bo‘laklar va qo‘shma gap tarkibida kelishini keng miqyosda tahlil etib, bunday qo‘llanishlarda bog‘lash vazifasini maxsus bog‘lovchi vositalar amalga oshirishi, na...na yordamchisi esa ta’kidli inkorni ifodalashga xizmat qilishini aniq misollarda ko‘rsatdi, uning ham...ham va boshqa yordamchi vositalar bilan paradigmatic aloqalarini tavsifladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, bu tadqiqotlardan keyin na...na yordamchi birligining yuklamaligini inkor qilishga asos qolmadidi. Faqat shuni ta’kidlash kerakki, “bu yordamchi so‘zning birlamchi substansial vazifasi yuklamalik bo‘lsa, ikkilamchi vazifasi bog‘lashga xizmat qilishidir.”²

Ushbu yordamchi birlikning bizning tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan yuklamalik xususiyatlarini, qanday konnataiv ma’nolarni ifodalab kelishini badiiy matn asosida ko‘rib chiqamiz. Iqbol Mirzo o‘zining qator she’rlaridan **na... na** yordamchi birlikni qo‘llaydi va u orqali asarini o‘zgacha emotsiyal bo‘yoq bilan bo‘yashga erishadi:

Huvillagan dunyo, huvillagan qalb,
Na quvonch, **na** rayhon, **na** g‘am, **na** yalpiz...
Qip-qizil qumlarni kechdim yuz yillab,
O‘zim bilan o‘zim yashadim yolg‘iz. (I.76-bet)

Ko‘plab lirik asarlarda kesimning holati ochiq-oydin ifoda etilmaydi. Bu inversiya, yoki shu singari sabablar tufayli hosil bo‘ladi. Yuqorida keltirgan misolimizda esa asarning birinchi misrasidayoq harakatning bo‘lishsiz shaklda ekanligi anglashiladi. Shoир misrada **na...na** yuklamasi orqali emotsiyal-ekspressivlikni yuqori darajaga ko‘tarish bilan birga undagi tanlab olingan so‘zlarni o‘zaro zidlash orqali ham asar ta’sirchanligini yanada oshirmoqda. Shu birgina misra orqali ham o‘xshatish, ham zidlash ma’nolari hosil qilinmoqda. Ya’ni, quvonch rayhonga, g‘am esa yalpizga o‘xhatilayotgan bo‘lsa, quvonch va g‘am, rayhon va yalpiz o‘zaro qarama-qarshi ma’noda qo‘llanilmoqda.

Ko‘rib turganimizdek, yuklama orqali ifodalangan inkor ma’nosи oddiy bo‘lishsiz shakldagi inkordan ko‘ra ancha kuchli va ta’kidlidir. Shu bois, u badiiy matn tarkibida o‘ta salmoqli konnotativ man’nolarni hosil qilib kela oladi.

¹Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. T.: Akademnashr. 2015. 245

²Расулов Р. Узбектилида ёрдамчисузларнинг семантик-грамматикхусусиятлари. – Т. Фан. 1983.79-6

Yuklamalar boshqa yordamchi so‘zlarga nisbatan konnotativ ma’no qiyematining yuqoriligi bilan farqlanadi. Masalan **-dir** yuklamasi lisoniy vositalarga qo‘silgandagumon ma’nosini voqelantiradi va u so‘zlashuv, badiiy uslubga xosligi, o‘z lisoniy imkoniyatlarini voqelantirishi uchun ana shunday qulay vaziyat bo‘lishini taqazo qiladi. **-dir** yuklamasi so‘roq olmoshlari, otlar, ko‘makchilar bilan qo‘llanilishi yoki har xil grammatik (son, daraja, egalik, kelishik v. b.) shakllarda kelishi mumkin. She’riy shakldagi matnda ko‘proq so‘roq olmoshlari bilan birgalikda qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz:

Qizlar... gapirmayman ular haqida,
Ularga she’r kerak, kerakmas shoir.
Kimgadir yig‘lagim kelar gohida...

Xayr, qaytayotgan turnalarim, xayr!(II.121-bet)

Bu misralardagi shoir iztirobini ifodalovchi satrlarda **-dir** yuklamasi orqali gumon ma’nosni bilan birgalikda, yolg‘izlik, dardmandlik ma’nolari ham anglashiladi. Shu o‘rinda yuklamaning konnotativ ma’noni yuzaga chiqarishda ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Ayrim yuklama affikslar morfologik affikslar yordamida hosil qilingan gap modeliga qo‘sishimcha kommunikativ (nutqiy) ma’nolar berish uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, morfologik affikslar gap ichi qurilishi uchun, ayrim affiks yuklamalar gap qurilmasini kontekstga bog‘lash, unga kontekstual, qo‘sishimcha ma’nolar berish uchun xizmat qiladi.”³

Bir kun bizni maktab yig‘lab kuzatdi,
Sochilib ketdik-ku, to‘ptoshlar kabi. (II.102-bet)

Yuqorida ifodalanayotgan fikrning oddiy shakli: to‘ptoshlar kabi sochilib ketdik. Ta’kidlov yuklama affaksi **-ku** ushbu oddiy modelga qo‘sishimcha konnotativ ma’no bermoqda. Natijada fikriy ifodada kuchli ta’kid, kuchaytirish ma’nolari orqali emotSIONallik oshirilmoqda. Yana bir shu fikr isboti uchun Iqbol Mirzo ijodidan misol:

Axir “Sevaman”, deb chekkan-ku yohu
Har sevgifurush qadimdan qadim.(II.33-bet)

An’anaviy tilshunoslikda til va nutq farqlanmaganligi, gap qolipi aniqlanmaganligi uchun ta’kidlov yuklamasining vazifasi – qo‘sishimcha ma’nosni morfologik affiksning qo‘sishimcha ma’nosidan aytarli farq qilmagan. Tushinarliroq qilib aytganda, ta’kidlov yuklamasining ma’nosini aniqlashda morfologik shakl ma’nosini aniqlashga o‘xhash yo‘l tutilgan. Masalan: “ta’kid yuklamasi so‘z ma’nosini ta’kidlaydi hamda so‘z ma’nosini kuchaytiradi” singari. Shunday ekan, so‘z ma’nosini ta’kidlash, shu gapni kontekstga bog‘lash, gapning ma’um bir bo‘lagi orqali jumlaga qo‘sishimcha ma’no va mazmun berish bo‘lgan. Til va nutq dixatomiyasi gap qolipi, matn kabi tayanch tushunchalar va matnni o‘rganish metodlari asosidagina

³ Isaqov Z. Yuklama va affikslar munosabati. O‘zbek tili va adabiyoti.2020. №4. 115-b.

kuchaytiruv ta'kid yuklamalarining funksional tabiatini ochish mumkin. Darhaqiqat, har qanday birlikning asl funksional tabiati ochilsagina uning qo'shimcha konnotativ ma'nosini to'laqonli ochish mumkin.

Affiks yuklamalar orasida **-mi** so'roq yuklamasi alohida ahamiyatga ega. U tilshunoslikda yuklamalardan tashqari qo'shimcha ko'plab vazifalarni bajarib keladi. "Bu yuklama shaklan affiksga o'xshasa ham, aslan affikslardan vazifasidan keskin farqlanadi. Masalan, bu yuklama gap turi(so'roq gap) hosil qilish vazifasini bajaradi. Masalan, darak gapdan so'roq gap hosil qiladi. *Amakim kelgan – Amakim kelganmi?* - mi affiks-yuklamasining ushbu ma'nosi ya'ni funksiyasi nutq, kommunikativ sintaksis bilan bog'liq. An'anaviy morfologiya gap ichidagi so'z shakllari, morfologik affikslar bilanshug'ullanganligi uchun-mi yuklamasiga "qo'shimcha ma'no beruvchi" yordamchi sifatida yondashilgan. Xolbuki, -mi affiks-yuklamasining so'zga(masalan, darak gapga) berayotgan ma'no tabiati butunlay boshqacha tabiatga ega: u gapning yangi mazmun turini hosil qiladi."⁴Darhaqiqat, ushbu yuklama orqali nafaqat oddiy nutqda, balki poetic nutqda ham yangicha mazmun hosil qilishda keng qo'llaniladi. - mi affiks-yuklamasi ham mazmunan, ham shaklan she'riy asar konnotatsiyasini oshirishga xizmat qiladi:

Adashdimmi, toldimmi,

Zulmatlarga qoldimmi?

To'g'ri yo'lga sol endi,

Ey, ko'zлari axtarim!

Ko'rib turganimizdek, bu birlikni badiiy matnda qo'llash orqali barcha tomonidan emotsional-ekspressivlik ortmoqda.

Opa, xotiradir u kunlar, opa,

Opa, u kunlarga bugun intiqman.

Bugun xatolarim qilmasmi xafa,

Chiqib ketmadimmi to'g'ri chiziqdan?!

Bu o'rinda shoir aynan, fikriy ifodasini so'roq ohangida berish orqali ichidagi bor gaplarini, xasratlarini to'kayotgandek. Shu xasratlarni konnotativ ma'no deyishimiz mumkin. Bu so'roq ohangi yuqorida aytib o'tganimizdek, albatta, **-mi** affiks yuklamasi yordamida hosil qila oladi, xolos.

Quyida keltirilgan misralarda esa **-mi** yuklamasi ifodaga qarama-qarshi fikrning yetkazilishiga xizmat qilmoqda:

Ko'ngli siniq edimmi,

Ko'ksi tiniq edimmi,

O'z boshimni yedimmi,

Xafa bo'lma, ho'p, jonim.(1.111-bet)

⁴Isaqov Z. Yuklama va affikslar munosabati. O'zbek tili va adabiyoti.2020. №4. 115-b.

She'rni boshdan oyoq o'qisak, ya'ni kontekst bilan to'liq tanishib chiqsak, bu misralardagi konnotativ ma'noni anglashimiz judayam oson. Asosiy ifodalanayotgan ma'no kechirim so'rash bo'lgan ushbu asarda **-mi** yuklama affiksi yordamida mazmunan so'roq orqali kuchli tasdiq, afsus-nadomat angalachilmoqda. Ko'ngli siniq bo'lmanaganman, bag'ritoshman/ ko'ksim tiniq emas edi, ichiqora insonman/ shu boisdan o'z boshimni o'zim yedim/ xafa bo'lma, fikrlari ilgari surilmoqda. Mana shuni haqiqiy konnotativ ma'no desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu holat ritorik so'roq gaplar bilan ham bog'liq. Bu masala tadqiqotimizning keying boblarida yoritilganligi uchun hozir alohida to'xtalib o'tirmaymiz. Ayni vaqtida **-mi** so'roq yuklamasining konnotativ ma'no ochib berishdagi roli biz uchun ahamiyatlidir. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytalarni olamizki, birgina affiks yuklama butun boshli gapning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklab, kuchli konnatatatsiya hodisasini yuzaga chiqara olar ekan.

Adabiyotlar:

1. Mirzo. I. ko`zlaringga termulsaydim. – T.: Sharq, 2020.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T.2009.
3. Umrqulov B. poetic nutq leksikasi. – T. : Fan. 1990.
4. Yo`ldoshev M. badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan. 2008.
5. O`zbek tilining izohli lug`ati. 2-5-jildlar. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T.: O`zbekiston.1992.